

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 13 - fevral

52-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani "Qoybaq" OFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2022-yil 9-dekabrda 6/6/42-142-sonli buyurtma xatini inobatga olib, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qorao'zak tumani "Qoybaq" OFY hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 5,0 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Muhandislik muhofaza va qurilish-tiklash ishlari bosh boshqarmasiga noruda foydali qazilmalarni yig'ish hamda qayta ishlash uskunalari o'rnatish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Muhandislik muhofaza va qurilish-tiklash ishlari bosh boshqarmasi (N.Saidov)dan:

- ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

- ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

- ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat

ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash so'ralsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**




F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 13 fevraldagi
52-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligining Muhandislik muhofaza bosh boshqarmasiga
Qarao'zak tumani "Qo'yboq" OFY hududidan qazilma boyliklarini qayta ishlash uskunasini o'rnatish uchun doimiy foydalanish
huquqi bilan ajratib berish rejalashtirilgan yer uchastkasining joylashish**

TARXI

M - 1: 5000



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Qorauzak tumani "Qoybaq" OFY hududida joylashgan bo'lib,

Shimol tomondan: Oshiq maydon,

Garb tomondan: Kishik yol 150m,

Sharq tomondan: Oshiq maydon,

Janub tomondan: Oshiq maydon,

W GS-84 Koordinatalari:

- | | |
|------------------|---------------|
| 1. 42° 9'17.54"C | 60°18'46.64"B |
| 2. 42° 9'11.69"C | 60°18'42.94"B |
| 3. 42° 9'8.25"C | 60°18'52.88"B |
| 4. 42° 9'14.16"C | 60°18'56.52"B |

Shartli belgilar



Ajratilgan yerlar chegarasi

Tuman markazidan: 100 km radius masofada

Qorauzak tumani "Qoybaq" OFY hududida joylashgan

Yer uchastkasi maydoni: 5 ga

Yerfondi: Tuman zaxira yerlari

Qaysi maqsadda foydalansa boladi : qazilma boyliklarini qayta ishlash uskunasini o'rnatish uchun

Yer turi: Qishlok xo'jaligida foydalanmaydigan boshka toifadagi yerlar

Ball baniteti : Boxolanmagan

Yer uchastkasining kadastr raqami: 3:14:05:02:02:0508